

## **TIL TARAQQIYOTI.**

**Hazratqulova Ferangiz Farrux qizi**

*1-bosqich talabasi, Tarjimonlik fakulteti,  
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.*

**Bozorova Vasila Ilhom qizi**

*Ilmiy rahbar: Ingliz tili amaliy tarjima kafedrasi stajor-o'qtuvchisi,  
Tarjimonlik fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.*

**Annotatsiya:** Til-insoniyatning eng muhim komunikativ vositasi bo'lib, u tarix davomida rivojlanib kelmoqda. Ushbu maqolada til taraqqiyotining asosiy omillari, uning ijtimoiy hayotdagi roli va zamonaviy tendensiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, sun'iy intellect, internet ijtimoiy tarmoqlarning tilga ta'siri, chet tillarining o'zbek tiliga kirib kelishi hamda kelajakda ona tilining xalqaro maydonidagi mavqeyini mustahkamlash yo'llari haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Til, til taraqqiyoti, tafakkur, lingvistika, kommunikatsiya, tilshunoslik, til va jamiyat, tilning ijtimoiy roli, yangi so'zlarning paydo bo'lishi.

Til inson tafakkuri jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Til inson hayotida juda muhim o'rinn tutadi. U orqali odamlar fikr almashadi, bilim oladi va madaniyatini saqlaydi. Ammo til o'zgarmas hodisa emas u jamiyat taraqqiyoti bilan birga rivojlanadi.

Zamonaviy texnologiyalar, globallashuv va ijtimoiy omillar tilga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Yangi so'zlarning eskirishi, internet va sun'iy intellect vositalarining lingvistik jarayonlariga ta'siri kabi omillar bugungi tilshunoslikka muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biridir.

Tilning tafakkur, ijtimoiy ong bilan aloqasi nihoyatda uzviy va chambarchasdir. Til nafaqat fikrni ifodalash yoki almashish vositasi, balki ijtimoiy ongda uni shakllantirish, mustahkamlash vositasi hisoblanadi.

Til- ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi. Til-jamiyat boyligi, u jamiyat a'zolaring o'zaro aloqa vositasini amalga oshiradi. Qisqa qilib aytganda, til-aloha quroli. Tafakkur tilga qaraganda tezroq rivojlanadi.

Til tafakkursiz, tafakkur esa esa tilsiz mavjud emas.

Tilning dastlabki ya'ni tilning paydo bo'lismasasi insoniyatni qadimgi zamonlardan beri qiziqtirib kelmoqda. Tilning kelib chiqishi insoniyat tarixidagi eng muhim va murakkab masalalardan biridir, Olimlar til qachon va qanday paydo bo'lganligi haqida turli nazariyalar ilgari surishgan. Chunki tilning aniq kelib chiqish sanasini va jarayonini to'g'ridan to'g'ri kuzatib bo'lmaydi- u uzoq evojutsion taraqqiyot natijasida shakllangan.

Insonlar jamoa bo'lib yashshga o'tganda, o'zaro muloqot qilish zaruryati paydo bo'lgan. Ov qilish, mehnatni taqsimlash va jamiyatni boshqarish uchun aniq ifodalangan signallar

kerak bo'lган. Avvaliga ishoralar va ovozlar ishlatilgan keyinchalik ular so'z va gaplarga aylangan.

Bundan tashqari diniy nazaryalar ham mavjud. Islimiylar ta'limotga ko'ra, Qur'onda Odam Ato yaratilgach, unga barcha narsalarning nomlari o'rgatilgani aytildi (Baqara surasi, 31-oyat.) Bu tilning ilohiy kelib chiqishini tasdqilovchi dalil sifatida qaraladi.

Xristianlik va yahudiylarda, Injilda ham Xudo odamga til va nutq qobilyatini ato etgani haqida ma'lumotlar bor.

Hind mifologiyasi: Sanskrit tilining ilohiy tildan kelib chiqqani aytildi.

Bu nazaryalar shuni angalatadiki, til inson tomonidan yaratilmagan, balki unga berilgan ne'matdir.

Tilning kelib chiqishi haqida turli nazaryalar mavjud bo'lsa-da, uning aniq qachon va qanday paydo bo'lGANI hozircha noma'lum.

Til ko'p qirrali murakkab hodisa. Til vatafakkur o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, til tafakkurni ifodalash va shakllantirish vositasi sifatida xizmat qiladi. Tilga nisbatan olimlar tomonida turli xil tariflar berilgan.

"Til taffakurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir" (F. De Sossyur).

"Til – odam ongingin ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lGAN mexanik harakatidir" (L. Blumfeld).

"Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan, talaffuz qilinadigan. Chegaralangan tovushlar majmuidir" (B. Grosse) .

Ushbu ta'riflar tilning murakkab qirralarini ochib bersa-da, tilni to'liq tavsiflab bera olmaydi. Avvallari til hayvon yoki o'simlik kabi tabiiy hodisa sifatida tushunilgan bo'lsa, bugungi kunda u ijtimoiy hodisa sifatida o'rganiladi.

Uzoq vaqtgacha olimlar tilni hayvon, o'simlik kabi tirik organzm deb tushunganlar, Ularning fikricha, Til tirik organzm singari, tabiat qonunlariga itoat qilgan holda tug'iladi, o'sadi va tarqqiy qiladi, so'ng eskiradi, o'ladi. Ya'ni til-biologik hodisa deb tushunishgan. Ammo til-biologik hodisa emas, ijtimoiy hodisadir. U kishilar uchun aloqa vositasi sifatida jamiyatga xizmat qiladi. Jamiyatsiz til, tilsiz jamiyat bo'lmaydi. Shuningdek tilning paydo bo'lishi tafakkur bilan bir paytda sodir bo'lgan.

Jamiyat rivojlangani sari til ham o'zgarib boyib boradi.

So'nggi yillarda su'niy intelekt til riv ojiga katta ta'sir o'tkazmoqda. Mashinaviy tarjima, ovozli yordamchilar, avtomatlashtirilgan matn yozish tizimlari til rivojlanish ta'sirini yanada tezlashtiradi.

Sun'iy intellektning tilga ta'siri

- Mashinaviy tarjimalar inson tarjimonlari ishini osonlashtirmoqda.
- Chatbot va ovozli yordamchilar muloqot madaniyatiga ta'sir o'tkazmoqda.

"Agar millatni yo'qotmoqchi bo'lsang, avval uning tilidan, dinidan, an'analaridan mahrum qilish lozim" degan edi donolarimiz. Haqiqatdan ham qaysidir ma'noda til millat uchun juda muhim. Bunga misol qilib o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilishini olishimiz mumkin. 1989-yil 21-oktyabrida rasman "O'zbek tili-davlat tili" maqomi berilgan. Bu o'z ona tilimizga bo'lgan e'tibor. O'zbek tili haqidagi qonun qabul qilingandan so'ng barcha

davlat hujjatlari o'zbek tilida yuritila boshladi, gazeta va jurnallarning o'zbek tilida chop etilishi yo'lga qo'yildi. 1993-yil 2-sentyabrdan "Lotin tiliga asoslangan o'zbek alifbosini tuzish tog'risida"gi qonun qabul qilingandan so'ng, mamlakatimiz har tomonlama rivojlandi va jahon kommunikatsiya tizimidan munosib o'rinn egalladi.

O'zbek tili mintaqaviy lahjachalari bilan ham ajralib turadi. Masalan:

Toshkent lahjasi: Adabiy tilga yaqin.

Farg'ona vodiysi lahjasi: O'ziga xos fonetik xususiyatga ega.

Xorazm lahjasi: Ba'zi qadimiy o'zbek so'zlarini saqlab qolgan.

Tilshunoslar mintaqaviy lahjalarning o'zbek tilining umumiyo rivojiga ta'sirini ham o'rganishlari lozim.

O'zbek tili ham juda boy til. Har bir so'zga yana bir nechalab sinonimlar topiladi. Bundan tashqari zamonaviylishib texnologiya, iqtisodiyot va boshqa sohalar rivojlanib borgani sari bizning tilimizga kundan-kunga xorijiy so'zlar qo'shilmoqda.

Tilshunos olimlar va mutaxassislar o'zbek tilining boyligini asrab-avaylash va rivojlantirish uchun ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Kelajakda o'zbek tilining xalqaro miqyosda mavqeyini yanada mustahkamlash, uni ilmiy va texnik tillar qatoriga qo'shish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Bu yo'lda til siyosatini yanada takomillashtirish, yangi atamalarni o'zbek tiliga moslashtirish va ta'lim tizimida til o'rganishga keng e'tibor qaratish lozim bo'ladi.

Kelajakda – yangi terminlarni o'zbek tiliga moslashtirish, o'zbek tilining texnik va ilmiy tillar qatoriga kirishini rag'batlantirish, O'zbek tilini xorijiy ta'lim muassalarida kiritish, onlayn kurslar, mobil ilovalarga o'zbek tilini kiritish va yana shunga o'xshash bir qancha yo'llar orqali rivojlantirish va boyitish mumkin.

Til faqat og'zaki yoki yozma muloqot vositasi emas, balki har bir xalqning milliy g'ururi, madaniy merosi va mustaqilligini belgilovchi asosiy omillardandir. Shuning uchun ham har inson o'z ona tilini hurmat qilishi, uni rivojlantirishi va kelajak avlodga yetkazishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, Til – insoniyat sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lib, unafaqat muloqot vositasi, balki jamiyatning madaniy va intellektual taraqqiyotini belgilovchi omildir.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tilning rivojlanishi va barqarorligi bevosita uning qo'llanilish darajasi, ta'lim tizimidagi o'rni va texnologik taraqqiyoti bilan bog'liq.

Har bir inson o'z ona tilini qadrlashi, uni rivojlantirishiga hissa qo'shishi va kelajak avlodlarga to'laqonli yetkazishi lozim. Har bir millatning tili – uning madaniyati, tarixi va milliy o'zligining ifodasidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sossyur, F. (1916). Umumiyl tilshunoslik kursi. Parij: Payot nashriyoti.
2. Blumfield, L. (1933). Til. Nyu-York: McGraw-Hill.

3. Grosse, B. (1972). Til nazariyalari va lingvistik tadqiqtolar. London: Cambridge University Press.
4. Raxmatullayev, Sh. (2006). O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Mahmudov, N. (2010). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
6. Dadaboyev, G. (2015). Til va jamiyat: tilshunoslik asoslari. Toshkent: Sharq nashriyoti.
7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2021). 21-modda: Davlat tili haqida. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.
8. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (1989). O'zbek tiliga davlat tili maqomi berish to'g'risidagi qonun.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi (1993). Lotin alifbosiga asoslangan o'zbek yozuvi to'g'risidagi qaror.
10. Xudoyberanova, M. (2020). Globallashuv sharoitida o'zbek tilining rivojlanish tendensiyalari. Toshkent: O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.